**Diktant.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha yo‘riqnoma**

Yozma savodxonlik bo‘yicha aksiyada ishtirok etish uchun **2018-yilning 11-may kunigacha** Diktant.uz saytida oldindan ro‘yxatdan o‘tishingizni tavsiya qilamiz. Buning uchun

1. Saytning yuqori qismining o‘ng tarafida **“Ro‘yxatdan o‘tish”** tugmasini bosing.




2. Saytda ro‘yxatdan o‘tish **mobil telefon raqami** orqali amalga oshiriladi. Shunga tegishli maydonga telefon raqamingizni kiriting.




3. Akkauntingizni tasdiqlash uchun telefon raqamingizga **5 daqiqa** ichida **“Tasdiqlovchi kod”** yuboriladi. So‘ng maydonlarga F.I.Sh., elektron pochta, parol va kelib tushgan kodni kiritgan holda saytda ro‘yxatdan o‘ting.



4. Endi saytdan to‘liq foydalanish uchun saytning yuqori qismida **“Kirish”** tugmasini bosib, telefon raqam va parolni kiriting va avtorizatsiyadan o‘ting.




5. Aksiyada ishtirok etish uchun shaxsiy profilingizda **“Tug‘ilgan sana”**, aksiya o‘tkazilayotgan manzillardan o‘zingizga ishtirok etish **qulay bo‘lgan ob'yektni tanlashingiz** va shu tariqa **“Men boraman”** tugmasini bosgan holda diktantni yozish uchun ishtirok etishingizni tasdiqlang. “O‘zgartirishlar saqlandi” degan yozuv Sizning muvaffaqiyatli tarzda ro‘yxatdan o‘tganligingizni bildiradi.




6. Diktant.uz saytining har bir foydalanuvchisi faqat bitta ishtirokchini ro‘yxatdan o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun, boshqa shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishda u uchun alohida foydalanuvchi akkauntini yarating.

7. Saytda ro‘yxatdan o‘tishda sizda muammo va qo‘shimcha savollar paydo bo‘lsa, aksiya tashkilotchilariga +99871 281-4801 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz yoki saytning “Savol-javob” bo‘limi orqali savol yuborishingiz mumkin.